

Rajabova Gulruh Ravshanbek qizi
*Urganch davlat universiteti Geografiya
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amudaryo deltasi landshafti dinamikasi va rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek mavzuga oid chet el adabiyotlarida keltirilgan ma'lumotlar ham tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *antropogen lanshaftlar, texnogen lanshaftlar, deygish hodisasi, o'simlik qoplami, errozion jarayonlar,*

Tabiatda barcha narsa unga boshqa biron voqea yoki jarayon ta'sir ko'rsatishi natijasida o'zgarishga yuz tutadi. Amudaryodaryo deltasi lanshaftlari ham turli xil ta'sir natijasida o'zgarib bormoqda. Mavzuning dolzarbligi esa shu lanshaftlarning o'zgarishi dinamikasi rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash va o'rganishdan iborat.

Landshaftning tarkibiy qismlari hisoblangan komponentlar orasida ham, uning morfologik qismlari orasida ham muttasil modda va energiya almashinib turishi uning ichki tuzilishi nihoyatda murakkab ekanligini ko'rsatish bilan birga landshaft qotib qolmagan, doimo o'zgarib, rivojlanib turadigan, o'ziga xos maxsus faoliyatda bo'lib turadigan moddiy tizim ekanligidan dalolat beradi. Har bir muayyan landshaft o'z ichida ro'y beradigan hamda tashqaridan ta'sir etib turadigan turli jarayonlar va omillar ta'sirida turli o'zgarishlarga uchraydi, yashaydi va rivojlanadi. Mazvuning obykti shu landshaft yaxlit hisoblansa uning predmeti uni tashkil etuvchi komponentlar hisoblanadi. Ma'lumki, tabiiy geografiya fanining eng dolzarb muammolaridan biri, bu geokomplekslarni vujudga kelishi, dinamikasi, taraqqiyoti va tabaqalanish qonuniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Amudaryo deltasi lanshaftlarining rivojlanib o'zgarishi natijasida juda ko'p o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bunday o'zgarishlarni eng avvalo kichikroq hududlardagi lanshaftlarning o'zgarishi va qishloq xo'jaligi yerlarining o'zgarishi misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Amudaryo quyi oqimi hududlarida tarqalgan meliorativ holati yomonlashgan sug'oriladigan yerlar 162,0 ming gektarni tashkil etib, shundan sizot suvlari satxining ko'tarilishi natijasida 31,5 ming gektar sho'rlanish darajasi yuqori va ikkilamchi sho'rlanish natijasida 57,7 ming gektar, suv ta'minoti yetishmasligi va sug'orish inshootlari yaroqsiz holga kelganligi oqibatida 63.2 ming gektar, qishloq xo'jalik ekinlari ekilmasligi sababli yaroqsiz holatga kelgan yerlar 9,2 ming gektarga tengdir. Meliorativ holati yomonlashganligiga qaramasdan ushbu yerlarning 49,0 ming gektarida qishloq xo'jalik ekinlari ekib kelinayotgan bo'lib, qolgan 113,0 ming gektari qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yerlardir. Bu esa, respublikamiz bo'yicha meliorativ holati og'irlashganligi natijasida qishloq xo'jaligida

foydalanilmayotgan sug'oriladigan yerlarning 62,4 foiziga to'g'ri keladi. Ya'ni grunt suvlarining keskin pasayishi, asosiy maydonlarda, botqoq, botqoq-o'tloqi, to'qay tuproqlari hosil bo'lish jarayonlari deyarli kuzatilmaydi. Suvdan bo'shagan yerlarda daryo va ko'l yotqiziqlaridan iborat, grunt ustida primitiv tuproq paydo bo'lish jarayoni boshlanadi.[1]²²

Yuqorida delta hududidagi tuproq xosil bo'lish jarayoni va ularning natijasida lanshaftlarning o'zgarishiga sabab bo'luvchi asosiy xususiyatlar keltirildi desak mubolag'a bo'lmaydi.



1-Rasm. Amudaryoning eski deltasi lanshaftlarining bugungi ko'rinishi.[2]²³

Amudaryoning hozirgi deltasidagi katta maydonga ega bo'lgan - Qizketken-Chimboy va kichik maydonga ega bo'lgan —Sho'rtamboylar kichik deltalarini tahlil qilish orqali amudaryo deltasi lanshaftlarini rivojlanishini o'rganish mumkin.

Amudaryoning hozirgi deltasidagi katta maydonga ega bo'lgan - Qizketken-Chimboy va kichik maydonga ega bo'lgan —Sho'rtamboylar kichik deltalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, - Qizketken-Chimboy kichik deltasida o'zanbo'yi balandliklari katta maydonga ega bo'lganligi uchun, deltada qum, qumloq, yengil qumoq yotqiziqlar ustunlik qiladi, chunki, bu deltada elyuvial elementar landshafti katta maydonni egallaydi. Sho'rtamboylar kichik deltasida buning aksi bo'lib, og'ir qumoq va soz ustunlik qiladi, elyuvial elementar landshaftning maydoni juda kam miqdorni tashkil etadi. Demak, har xil energiyaga ega bo'lgan delta tarmoqlaridan hosil bo'lgan kichik deltalarda litologik tarkib turlicha bo'ladi.

Litologik tarkibning har-xil bo'lishi tuproqlarning hosil bo'lishi va rivojlanishida o'z aksini topadi. Har bir kichik deltalarda balandliklar va pastliklar bir xil bo'lmaganligi uchun tuproqlarning genetik turlari, elementar landshaftlarning guruhlari va landshaft xillari ham bir xil bo'lmaydi. Delta tarmoqlarining energiyasiga bog'liq holda, olib kelingan oqiziqlarning yotqizilishi natijasida hosil bo'lgan o'zanbo'yi balandliklari kichik deltalarda turlicha bo'ladi. Qisqacha qilib

²² Qoraqalpog'iston respublikasida iqlim o'zgarishi natijasida Amudaryo quyi oqimi tuproq qoplamining transformasiyasi Reymova f.n., jumabekova u., saparova a.

Berdoq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti

²³ www.geografiya.uz internet sayti.

aytganda delta lanshaftlarining o'zgarishi doimo bo'lib turadi bunga insonlar qatori tabiatning ta'siri ham eng ko'p hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki delta lanshaftlarini o'rganish natijasida hududda asosan orol dengizining suvini qurishi va amudaryoning suv sarfini kamayishi desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi bir vaqtlar daryo ostida bo'lgan hududlar bugun esa quruqlikka aylanib turli xil jarayonlar natijasida o'zgarib ketgan. Delta lanshaftlarining o'zgarishi doimo bo'lib turadi buni kuzatishlarimiz natijasida ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishankulov M.SH. Pochvenno-meliorativnoe uchenie o yedinstve proessov lito-morfo-pedogeneza v deltax i yego geograficheskaya sushnost. //Problemi osvoeniya pustin. – 1979. – № 5. -S.3-17.
2. Muraveyskiy S.D. Rol geograficheskix faktorov v formirovanii geograficheskix kompleksov. // Voprosi geografii, – M.: Misl, 1948. – Sb. 9. – S. 95-110.
3. Urazbaev A.K., Xursanov D.B. Delta geotizimlarining lito-morfo-pedogenez jarayonini o'rganishning ilmiy metodik asoslari. //O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 51-jild. –T., 2017. – B.36-40.
4. Xursanov D.B. Amudaryo xozirgi deltasi landshaftlarining o'rganilish tarixi // «Geografiya - kelajakka nazar» mavzusidagi Respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjuman materiallari. -Nukus, 2018. -B.31-35.
5. Xursanov D.B. Amudaryo hozirgi deltasi landshaftlarining strukturasi va tabaqalanish qonuniyatlari //Geogr. fan. bo'yicha PhD diss. avtoref. – Samarqand, 2019. - B. 9-19